

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG

Til kompetensiyalari va baholash (assessment) tamoyillari

2024

Xodjayeva D.I. filologiya fanlari doktori
(DSc), dotsent.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI

“Til kompetensiyalari va baholash (assessment) tamoyillari”

MODULI BO‘YICHA

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Buxoro – 2024

Modulning o`quv-uslubiy majmuasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 27 dekabrda 485-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o`quv dasturi va o`quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: D.I.Xodjayeva - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent.

Taqrizchilar: Z.I.Rasulov - filologiya fanlari doktori, professor.

M.U.Saidova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	5
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA‘LIM METODLARI	12
III. NAZARIY MATERIALLAR	20
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	55
V. GLOSSARIY	88
VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	90

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23-sentyabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3- dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1-iyimdagi "Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 296- son Qarorlarida belgilangan ustuvor yo'nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik litseylar pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan tayanch modullari mavzulari orqali akademik litseylarda faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlarning ingliz tilidan til aspektlari amaliyotiga oid zamonaviy yondashuvlardan samarali foydalanish, madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini amalga oshirish, til ko'nikmalarida kommunikativ yondashuv asoslarini o'zlashtirish darajasini oshirish hisobiga ularning pedagogik mahorat va kasbiy kompetentligini muntazam takomillashtirish bilan birgalikda pedagog xodimlarning ehtiyojlari asosida tanlab olingan tanlov modullari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari ta'minlanadi.

Kursning maqsad va vazifalari

Kurs davomida davomida tinglovchilar dastlab namunaviy darslarda "til o'rganuvchi" rolida qatnashadilar, so'ngra o'qituvchi sifatida tavsiya etilgan darslar va mashqlarni tahlil qilishadi, maxsus testlarni yechishadi, portfolio topshiriqlarini bajarishadi, namunaviy dars olib borish orqali o'zlarining til o'qitish ko'nikmalarini rivojlantirishadi. Kurs ishtirokchilaridan kasbiy malakalaridan kelib chiqqan holda chet tili o'qitishdagi dolzarb masalalarni belgilab olishlari, shuningdek, guruh a'zolari bilan darsda hamkor holda ish yuritishlari kutilmoqda. Shuningdek, pedagogik innovatsiya tushunchasi, ta'lim sohasidagi innovatsion jarayonlarning mazmuni va mohiyati, pedagogik innovatsiyalar xususiyatlarini

anglab tushunish va innovatsion uslublarni ishlab chiqish va joriy etish kabi tushunchalarga ega bo'lishadi.

Shuningdek, innovatsiya va u bilan bog'liq tushunchalarning pedagogik tavsifini tushunish; innovatsion faoliyatning muhim komponentlari va ta'lim tizimida innovatsion uslublarni ishlab chiqishning zaruriyati, shart-sharoitlarini anglash; innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish, innovatsion metodlarni ishlab chiqish va o'rganishning didaktik prinsiplarga yondashgan holda darslarni tashkil etish, kutilayotgan natijalarni belgilash malakalarini rivojlantiradilar.

Amaliy va seminar mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy va seminar mashg'ulotlarda tinglovchilar o'quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o'quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog'liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar.

Amaliy va seminar mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda o'tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o'quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modulni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, internet resurslari, multimedia mahsulotlari va boshqa elektron hamda qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

Modul birliklari bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Mavzular	Tinglovchining oʻquv yuklamasi, soat				
		Hammasi	Auditoriyadagi oʻquv yuklamasi		Mustaqil tayyorgarlik	
			Jam	-i		Jumladan:

				Amaliy mashg'ulot	Seminar	Ko'chma mashg'ulot	
1	Namunaviy darslarda "til o'rganuvchi" roliga qatnashish. Tavsiya etilgan dars va mashqlarni "o'qituvchi" roliga tahlil qilish. Portfolioda beriladigan topshiriqlarni bajarish.	2	2		2		
2	Namunaviy dars olib borish orqali pedagogik mahoratni oshirish. Chet tili o'qitishdagi dolzarb masalalarni belgilab olish va ularni kichik guruhlarda muhokama qilish.	2	2	2			
3	Dars davomida guruhlarda, juftliklarda hamkorlikda ishlab interfaol usullarning samarali shakllarini ta'lim jarayoniga tatbiq qilish, fikr almashish, bir-biridan o'rganish. Ta'lim sohasida erishilgan yutuqlarni ommalashtirish.	2	2	2			
	Jami:	6	6	4	2		

SEMINAR MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Tinglovchilar o'tkazilgan namunaviy darslarda avval "til o'rganuvchi" roliga qatnashishadi. Keyinchalik tavsiya etilgan dars va mashqlarni

“o‘qituvchi” roliga kuzatib, tahlil qilishadi. Shuningdek, dars davomida portfolioda beriladigan topshiriqlarni bajarishadi.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Tinglovchilar namunaviy dars olib borish orqali o‘z pedagogik mahoratni oshiradi. Chet tili o‘qitishdagi dolzarb masalalarni belgilab olib, ularni kichik guruhlarda muhokama qilishadi. Ushbu dolzarb masalalar haqida suhbat-munozara o‘tkazishadi.

2-mavzu. Tinglovchilar dars davomida interfaol usullarning samarali shakllarini ta’lim jarayoniga guruhlarda, juftliklarda hamkorlikda ishlab tadbiq qilishadi va bu orqali fikr almashib, bir-biridan o‘rganishadi. Ta’lim sohasida erishilgan yutuqlarni ommalashtirishga alohida e’tibor qaratiladi.

SEMINAR MASHG‘ULOTI

1-Mavzu. Namunaviy darslarda “til o‘rganuvchi” roliga qatnashish. Tavsiya etilgan dars va mashqlarni “o‘qituvchi” roliga tahlil qilish. Portfolioda beriladigan topshiriqlarni bajarish

Seminar mashg‘ulotining maqsadi

Tinglovchilarda zamonaviy chet tili darslarini kuzatish, tahlil qilish, o‘qituvchi faoliyatini baholash hamda reflektiv fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Kutilayotgan natijalar

Seminar yakunida tinglovchi:

- namunaviy darsni o‘quvchi nuqtai nazaridan kuzata oladi;
- darsning maqsad va vazifalarini aniqlay oladi;
- qo‘llanilgan metod va texnologiyalarni tahlil qila oladi;
- darsning kuchli va takomillashtirilishi lozim bo‘lgan jihatlarini aniqlay oladi;
- reflektiv hisobot tayyorlay oladi;
- portfolio uchun zarur materiallarni shakllantira oladi.

Nazariy ma’lumot

Kuzatuv (Observation) nima?

Kuzatuv pedagogik faoliyatni o'rganishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Darsni kuzatish orqali o'qituvchi:

- yangi metodlarni o'rganadi;
- hamkasblar tajribasini tahlil qiladi;
- o'z faoliyatini takomillashtirish uchun g'oyalar oladi.

Zamonaviy metodikada kuzatuv passiv jarayon emas. Kuzatuvchi darsning barcha komponentlarini tahlil qilishi va refleksiya qilishi lozim.

Dars kuzatuvining asosiy mezonlari

1. Dars maqsadi

Kuzatuvchi quyidagi savollarga javob topishi kerak:

- Dars maqsadi aniq qo'yilganmi?
- Maqsad talabalarga tushuntirilganmi?
- Dars yakunida maqsadga erishilganmi?

2. Darsning tuzilishi

Dars quyidagi bosqichlarni qamrab olganmi?

- Warm-up
- Presentation
- Practice
- Production
- Feedback
- Reflection

3. O'qituvchi faoliyati

Quyidagilar tahlil qilinadi:

- instruktsiyalarning aniqligi;
- savol berish usullari;
- vaqtni boshqarish;
- talabalarni jalb qilish darajasi;
- baholash usullari.

4. Talabalar faoliyati

Quyidagilar kuzatiladi:

- faollik darajasi;
- juftlik va guruh ishlari;
- kommunikativ ishtirok;
- mustaqil fikrlash.

5. Qo'llanilgan metodlar

Masalan:

- Communicative Language Teaching;
- Task-Based Learning;
- Cooperative Learning;
- Project-Based Learning;
- Interactive Learning.

1-TOPSHIRIQ. "Til o'rganuvchi" sifatida kuzatish

Namunaviy dars davomida quyidagi jadvalni to'ldiring.

Savollar	Javob
Dars mavzusi	
Dars maqsadi	
Men nimani o'rgandim?	
Qaysi faoliyat menga qiziqarli bo'ldi?	
Qaysi faoliyat qiyinchilik tug'dirdi?	
O'qituvchi qanday yordam berdi?	
Men bu darsni qanday baholayman?	

2-TOPSHIRIQ. "O'qituvchi" sifatida tahlil

Quyidagi jadvalni to'ldiring.

Tahlil mezonlari	Izoh
Dars maqsadi	
Dars bosqichlari	

Tahlil mezonlari	Izoh
Metodlar	
Baholash usullari	
Talabalar faolligi	
Kuchli tomonlari	
Takomillashtirilishi lozim bo'lgan jihatlar	

CASE-STUDY

O'qituvchi speaking darsida 20 daqiqa davomida grammatik qoidalarni tushuntirdi. Talabalarga gapirish uchun atigi 5 daqiqa vaqt ajratildi.

Muhokama savollari

1. Darsning asosiy kamchiligi nimada?
2. Kommunikativ yondashuv nuqtai nazaridan qanday xatolar mavjud?
3. Siz ushbu darsni qanday qayta tashkil qilgan bo'ladingiz?
4. Talabalarning nutq faolligini oshirish uchun qanday topshiriqlar tavsiya qilasiz?

GURUH MUHOKAMASI

Mavzu: "Zamonaviy ingliz tili darsining eng muhim xususiyatlari"

Guruhlar quyidagi masalalarni muhokama qiladilar:

- Talabaga yo'naltirilgan ta'lim;
- Kommunikativ yondashuv;
- Interaktiv metodlar;
- Formativ baholash;
- Raqamli texnologiyalar.

PORTFOLIO TOPSHIRIG'I

Reflektiv hisobot

Tinglovchi kuzatilgan namunaviy dars bo'yicha 500–700 so'zdan iborat reflektiv hisobot tayyorlaydi.

Hisobot quyidagi qismlardan iborat bo'lishi kerak:

1. Dars haqida umumiy ma'lumot

- mavzu;
- maqsad;
- auditoriya.

2. Kuzatilgan metodlar

- qaysi metodlardan foydalanildi;
- ularning samaradorligi.

3. O'rganilgan tajriba

- o'zim uchun qanday xulosalar chiqardim;
- amaliyotimda nimalarni qo'llayman.

4. Takliflar

- darsni yanada takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar.

AMALIY MASHG'ULOTLAR

1- Mavzu: Namunaviy dars olib borish orqali pedagogik mahoratni oshirish.

**Chet tili o'qitishdagi dolzarb masalalarni belgilab olish va ularni kichik
guruhlarda muhokama qilish**

Mashg'ulotning maqsadi

Tinglovchilarning zamonaviy chet tili darslarini loyihalash, tashkil etish va olib borish bo'yicha pedagogik mahoratini rivojlantirish, chet tillarni o'qitishning dolzarb muammolarini aniqlash hamda ularning yechimlari yuzasidan kasbiy fikr almashish ko'nikmalarini shakllantirish.

Kutilayotgan natijalar

Mashg'ulot yakunida tinglovchilar:

- zamonaviy ingliz tili darsini rejalashtira oladilar;
- mikro-o'qitish (microteaching) faoliyatini amalga oshira oladilar;
- darsning kuchli va zaif tomonlarini aniqlay oladilar;
- hamkasblar faoliyatiga konstruktiv fikr-mulohaza bera oladilar;
- chet tili o'qitishdagi dolzarb muammolarni tahlil qila oladilar;
- muammolarning amaliy yechimlarini ishlab chiqa oladilar;

- reflektiv va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Nazariy ma’lumot

Pedagogik mahorat tushunchasi

Pedagogik mahorat o‘qituvchining ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilar faoliyatini boshqarish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash hamda kutilgan natijalarga erishish qobiliyatini ifodalaydi.

Zamonaviy chet tili o‘qituvchisining pedagogik mahorati quyidagi komponentlarni qamrab oladi:

- metodik kompetensiya;
- kommunikativ kompetensiya;
- raqamli kompetensiya;
- reflektiv kompetensiya;
- baholash kompetensiyasi;
- madaniyatlararo kompetensiya.

Mikro-o‘qitish (Microteaching)

Mikro-o‘qitish – pedagogik mahoratni rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg‘ulot bo‘lib, unda o‘qituvchi qisqa muddatli (10-15 daqiqalik) dars fragmentini namoyish etadi.

Mikro-o‘qitishning afzalliklari:

- o‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilishiga yordam beradi;
- amaliy tajriba almashish imkonini yaratadi;
- innovatsion metodlarni sinab ko‘rish imkonini beradi;
- reflektiv ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

1-TOPSHIRIQ

Mikro-dars tayyorlash

Har bir tinglovchi yoki kichik guruh quyidagi mavzulardan biri bo‘yicha 10-15 daqiqalik mini-dars tayyorlaydi.

Namunaviy mavzular

- Developing Speaking Skills
- Teaching Academic Vocabulary

- Critical Reading Strategies
- Teaching Listening through Authentic Materials
- Using AI Tools in ELT
- Formative Assessment Techniques
- Developing Writing Skills

Mikro-dars talablari

Dars quyidagi qismlardan iborat bo‘lishi lozim:

Bosqich	Vaqt
Warm-up	2 daqiqa
Presentation	3 daqiqa
Practice	5 daqiqa
Feedback	2 daqiqa
Reflection	2 daqiqa

MIKRO-DARS KUZATUV VARAQASI

Mezon	Ball
Dars maqsadining aniqligi	10
Metodlarning to‘g‘ri tanlanishi	10
Tinglovchilar faolligini ta‘minlash	10
Kommunikativ yondashuv	10
Vaqtdan foydalanish	10
Refleksiya tashkil etilishi	10
Jami	60

2-TOPSHIRIQ

Hamkasb darsini tahlil qilish

Har bir tinglovchi boshqa guruhning mini-darsini kuzatib, quyidagi jadvalni to‘ldiradi.

Savollar	Javob
Darsning kuchli tomoni	
Eng samarali metod	
Takomillashtirish kerak bo'lgan jihat	
O'zim uchun olgan tajriba	

GURUH MUHOKAMASI

Chet tillarni o'qitishdagi dolzarb masalalar

Tinglovchilar 4-5 kishilik kichik guruhlariga bo'linadilar. Har bir guruh quyidagi muammolardan birini muhokama qiladi:

1-guruh: Sun'iy intellekt va akademik halollik

Muhokama savollari:

- ChatGPT va boshqa AI vositalari ta'limga qanday ta'sir ko'rsatmoqda?
- AI'dan foydalanishda qanday cheklovlar bo'lishi kerak?
- Akademik halollikni qanday ta'minlash mumkin?

2-guruh: Talabalar motivatsiyasining pasayishi

Muhokama savollari:

- Motivatsiya pasayishining asosiy sabablari nimalar?
- Qaysi metodlar motivatsiyani oshiradi?
- O'qituvchi qanday rol o'ynaydi?

3-guruh: Katta guruhlarda samarali til o'qitish

Muhokama savollari:

- Katta auditoriyalarda qanday muammolar yuzaga keladi?
- Interaktiv metodlarni qanday qo'llash mumkin?
- Baholash qanday tashkil etiladi?

4-guruh: Raqamli texnologiyalar va til o'qitish

Muhokama savollari:

- Qaysi platformalar eng samarali?
- Onlayn va an'anaviy ta'limning afzalliklari nimada?

- Raqamli vositalar kommunikativ kompetensiyani rivojlantira oladimi?

CASE-STUDY

Universitetda ingliz tili fanidan dars beruvchi o'qituvchi talabalarni faollashtirish uchun ko'plab interaktiv metodlardan foydalanadi. Biroq semestr yakunida talabalar natijalari kutilgan darajada yuqori bo'lmadi.

Muhokama savollari

1. Muammoning asosiy sabablari nimalarda bo'lishi mumkin?
2. Faollik va o'quv natijalari o'rtasidagi bog'liqlik qanday?
3. Baholash tizimi qayta ko'rib chiqilishi kerakmi?
4. Siz qanday tavsiyalar bergan bo'lardingiz?

SWOT-TAHLIL

Mavzu: Zamonaviy chet tili o'qituvchisining kasbiy faoliyati

S (Strengths)	W (Weaknesses)
O (Opportunities)	T (Threats)

Guruhlar SWOT jadvalini to'ldirib, natijalarni taqdim etadilar.

PORTFOLIO TOPSHIRIG'I

Pedagogik refleksiya

Tinglovchi "Mening zamonaviy chet tili o'qituvchisi sifatidagi kasbiy rivojlanish strategiyam" mavzusida 700–1000 so'zli reflektiv esse yozadi.

Esse tarkibi

1. Mening kuchli tomonlarim.
2. Kasbiy faoliyatimdagi muammolar.
3. O'z ustimda ishlash rejam.
4. Zamonaviy texnologiyalarni qo'llash istiqbollari.
5. Kelgusi 3 yillik kasbiy rivojlanish maqsadlarim.

Mustaqil ta'lim uchun savollar

1. Zamonaviy chet tili o'qituvchisining asosiy kompetensiyalari nimalardan iborat?

2. Mikro-o'qitishning afzalliklari va kamchiliklari nimalar?
3. Akademik halollik tushunchasini izohlang.
4. Talabalar motivatsiyasini oshirishning samarali usullarini tavsiflang.
5. Raqamli texnologiyalar chet tili o'qitish sifatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

2- MAVZU: Dars davomida guruhlarda, juftliklarda hamkorlikda ishlab interfaol usullarning samarali shakllarini ta'lim jarayoniga tatbiq qilish, fikr almashish, bir-biridan o'rganish. Ta'lim sohasida erishilgan yutuqlarni ommalashtirish

Seminar mashg'ulotining maqsadi

Tinglovchilarda hamkorlikda o'qitish (Collaborative Learning) va interfaol ta'lim metodlaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, tajriba almashish madaniyatini rivojlantirish hamda ta'lim sohasidagi ilg'or pedagogik yutuqlarni o'quv jarayoniga joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Kutilayotgan natijalar

Seminar yakunida tinglovchilar:

- interfaol ta'lim metodlarining mohiyatini tushuntira oladilar;
- juftlik va guruh ishlari samaradorligini baholay oladilar;
- hamkorlikda o'qitish texnologiyalaridan foydalana oladilar;
- ta'lim jarayoniga mos interfaol metodlarni tanlay oladilar;
- ilg'or pedagogik tajribalarni tahlil qila oladilar;
- o'zaro tajriba almashish va refleksiya olib borish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Nazariy ma'lumot

Hamkorlikda o'qitish (Collaborative learning)

Hamkorlikda o'qitish – bu ta'lim oluvchilarning kichik guruhlarda birgalikda faoliyat olib borishlari, bilim almashishlari va umumiy maqsadga erishishga qaratilgan ta'lim texnologiyasidir.

Hamkorlikdagi ta'lim quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- o'zaro bog'liqlik;

- individual javobgarlik;
- faol ishtirok;
- o‘zaro yordam;
- refleksiya va fikr almashish.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hamkorlikdagi ta’lim talabalarning kommunikativ kompetensiyasi, tanqidiy fikrlashi va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Interfaol metodlarning afzalliklari

Interfaol metodlar:

- talabalarni dars markaziga olib chiqadi;
- mustaqil fikrlashni rivojlantiradi;
- motivatsiyani oshiradi;
- muloqot ko‘nikmalarini shakllantiradi;
- bilimlarni uzoq muddat eslab qolishga yordam beradi.

1-TOPSHIRIQ - "Think – Pair – Share" metodi

Mavzu: “XXI asr ingliz tili o‘qituvchisi qanday kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerak?”

Bosqichlar

Think (2 daqiqa)	Har bir tinglovchi mustaqil ravishda savol ustida fikr yuritadi va o‘z javoblarini yozadi.
Pair (5 daqiqa)	Tinglovchilar juftliklarda fikr almashadilar.
Share (8 daqiqa)	Har bir juftlik o‘z xulosalarini guruh bilan bo‘lishadi.

2-TOPSHIRIQ - "Jigsaw" metodi

Mavzu: Zamonaviy chet tili ta’limidagi innovatsion yondashuvlar

Tinglovchilar 4 guruhga bo‘linadi.

1-guruh	Communicative Language Teaching
2-guruh	Task-Based Learning
3-guruh	Blended Learning
4-guruh	Flipped Classroom

Har bir guruh o'z mavzusini o'rganib chiqadi va keyinchalik boshqa guruh a'zolariga tushuntiradi.

3-TOPSHIRIQ - "Gallery Walk" metodi

Mavzu: Til kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali usullari

Guruhlar quyidagi yo'nalishlar bo'yicha poster tayyorlaydilar:

- Speaking
- Listening
- Reading
- Writing

Posterlar auditoriyaga ilib qo'yiladi va tinglovchilar ularni navbat bilan ko'rib chiqib, fikr-mulohazalarini yozib qoldiradilar.

GURUH MUHOKAMASI

Mavzu: Oliy ta'limda ingliz tilini o'qitishning dolzarb muammolari

Muhokama uchun savollar:

1. Talabalar motivatsiyasini oshirishning samarali usullari qanday?
2. Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish qanday imkoniyatlar yaratmoqda?
3. Baholash jarayonidagi asosiy muammolar nimalardan iborat?
4. Akademik halollikni ta'minlashning samarali mexanizmlari qanday?
5. Raqamli texnologiyalar o'quv jarayonini qanday o'zgartirmoqda?

CASE-STUDY

Universitetda ingliz tili darslari an'anaviy ma'ruza shaklida olib boriladi. Talabalar tinglovchi rolda qolmoqda, guruh va juftlik ishlari deyarli qo'llanilmaydi. Natijada talabalar og'zaki nutq ko'nikmalarida qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Muhokama savollari

1. Muammoning asosiy sabablari nimada?
2. Qaysi interfaol metodlar ushbu vaziyatda samarali bo‘ladi?
3. Guruh ishlari qanday tashkil etilishi mumkin?
4. Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun qanday tavsiyalar berasiz?

4-TOPSHIRIQ

SWOT-tahlil

Mavzu: Interfaol metodlarni oliy ta’limda qo‘llash

S (Strengths)	W (Weaknesses)
O (Opportunities)	T (Threats)

Har bir guruh SWOT jadvalini to‘ldiradi va taqdimot qiladi.

TA’LIM SOHASIDAGI ILG‘OR TAJRIBALARNI OMMALASHTIRISH

Topshiriq

Har bir guruh quyidagi mavzulardan biri bo‘yicha taqdimot tayyorlaydi:

1. CEFR asosida til o‘qitish tajribasi.
2. Moodle va Google Classroom imkoniyatlari.
3. Sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish.
4. Formativ baholashning zamonaviy usullari.
5. Xalqaro til testlari tajribasi (IELTS, TOEFL va boshqalar).

Taqdimot talablari

- 5-7 daqiqa;
- 5-7 ta slayd;
- amaliy tavsiyalar;
- muhokama uchun savollar.

PORTFOLIO TOPSHIRIG‘I

Reflektiv hisobot

Mavzu: “Interfaol metodlardan foydalanish mening pedagogik faoliyatimni qanday takomillashtiradi?”

Hajmi: 700-1000 so‘z.

Hisobot tarkibi

1. Seminar davomida o‘rganilgan metodlar.
2. Eng samarali deb hisoblagan metod.
3. O‘z darslarimda qo‘llash rejalari.
4. Kutilayotgan natijalar.
5. Shaxsiy refleksiya.

Mustaqil ta’lim uchun savollar

1. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining afzalliklari nimalardan iborat?
2. Interfaol metodlarning an’anaviy metodlardan farqi nimada?
3. “Think–Pair–Share” metodining pedagogik imkoniyatlarini tavsiflang.
4. “Jigsaw” metodini chet tili darslarida qanday qo‘llash mumkin?
5. Ta’lim sohasidagi ilg‘or tajribalarni ommalashtirishning samarali usullarini izohlang.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• кучли томонлари
W – (weakness)	• заиф, кучсиз томонлари
O – (opportunity)	• имкониятлари
T – (threat)	• тўсиқлар

Namuna: Nanotexnologiyaning fizikaviy asoslari va amaliyotda qo'llanishi SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	Nanotexnologiyaning fizikaviy asoslari va amaliyotda qo'llanishi modulini kuchli tomonlari	Nanofizika va nanotexnologiy fanlarining hamkorligi
W	Nanotexnologiyaning fizikaviy asoslari va amaliyotda qo'llanishi modulini kuchsiz tomonlari	Nanomateriallar yaratishning noyob xom-ashyolar va yangi texnologiya-larga ehtiyojining yuqori ekanligi
O	Nanotexnologiyaning fizikaviy asoslari va amaliyotda qo'llanishi modulini imkoniyatlari (ichki)	Innovatsion ishlab chiqarishning keng qo'llanishi va samaradorligi
T	To'siqlar (tashqi)	Nanomateriallar ishlab chiqarishda qo'shimcha xarajatlar paydo bo'lishi

Xulosalash (Rezyume, Veyer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati

shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Методни амалга ошириш тартиби:



тренер-ўқитувчи иштирокчиларни 5-6 кишидан иборат кичик гуруҳларга ажратади;



тренинг мақсади, шартлари ва тартиби билан иштирокчиларни таништиргач, ҳар бир гуруҳга умумий муаммони таҳлил қилиниши зарур бўлган қисмлари туширилган тарқатма материалларни



ҳар бир гуруҳ ўзига берилган муаммони атрофлича таҳлил қилиб, ўз мулоҳазаларини тавсия этилаётган схема бўйича тарқатмага ёзма баён қилади;



навбатдаги босқичда барча гуруҳлар ўз тақдимотларини ўтказадилар. Шундан сўнг, тренер томонидан таҳлиллар умумлаштирилади, зарурий ахборотлар билан тўлдирилади мавзу

“Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha so'z bo'lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «study» – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki

aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	yakka tartibdagi audio-vizual ish; keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); axborotni umumlashtirish; axborot tahlili; muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	individual va guruhda ishlash; muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	individual va guruhda ishlash; muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	yakka va guruhda ishlash; muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Keys. Kompozit material shakllantirish uchun komponentlar tanlandi. Ularni suyuq fazaga o'tkazib aralashtirishda suyuqlanish harorati harxilgi bo'yicha muammo kelib chiqdi. Kompozit olish uchun yangicha ilmiy yondashish talab etilmoqda.

Кейсни бажариш босқчилари ва топшириқлар:

- Кейсдаги муаммони келтириб чиқарган асосий сабабларни белгиланг (индивидуал ва кичик гуруҳда).
- Мобил иловани ишга тушириш учун бажариладагина ишлар кетма-кетлигини белгиланг (жуфтликлардаги иш).

“AQLIY HUJUM” METODI

“Aqliy hujum” metodi muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llaniladigan metod hisoblanadi. Bu metod o'quvchilarni muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, shuningdek, o'z tasavvurlari va g'oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma va malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi. Ushbu metod yordamida tashkil etilgan dars jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi.

Ushbu metoddan samarali foydalanish maqsadida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

Talabalarning o'zlarini erkin xis etishlariga sharoit yaratib berish;

G'oyalarni yozib borish uchun yozuv taxtasi yoki varaqlarni tayyorlab qo'yish;

Muammo (yoki mavzu)ni aniqlash;

Mashg'ulot jarayonida amal qilinishi lozim bo'lgan shartlarni belgilash;

Bildirilayotgan g'oyalarni ularning mualiflari tomonidan soslanishiga erishish va ularni yozib olish;

Qog'oz varaqlari g'oya bilan to'lgandan so'ng ularni yozuv taxtasiga osib qo'yish;

Bildirilgan fikrlarni yangi g'oyalar bilan boyitish asosida ularni quvvatlash;
Boshqalar tomonidan bildirilgan fikrlar ustidan kulishga, kinoyali sharxlarning bildirilishiga yo'l qo'ymaslik;

Yangi g'oyalarni bildirish davom etayotgan ekan, muammoning yagona to'g'ri yechimini e'lon qilishga shoshilmaslik.

“Aqliy hujum” metodlaridan fizikadagi har bir bobni takrorlashda foydalanish samarali natija beradi. Shuningdek, yangi mavzular bayonidan so'ng shu mavzuni mustahkamlash uchun ham ushbu metodni qo'llash tavsiya

“SCORE” interfaol uslubi

(umumiy o'rta maktab, O'MKHTM, OTM talabalar va talabalari hamda malaka oshirish va qayta kurslari tinlovchilari uchun)

Uslub maqsadi: talabalarga o'zgalar fikrini hurmat qilgan holda dalillash, ishontirish, asoslash; murosaga kelish va izlash qobiliyatlarini rivojlantirish; muammoli vaziyatlarni oldindan ko'ra bilish, ularni hal qilish yo'llarini izlab topish, munozara olib borish mahorati, o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olish, ta'sir eta olishga o'rgatish va bahslashish madaniyatini shakllantirish.

Uslubdan kutiladigan natija: talabalar mashg'ulot davomida nostandart vaziyatlarda o'zini va jamoani boshqara olish, muammoli vaziyatlarni tushuna bilish va ularning yechimini aniqlashda va o'z uslublarini topa bilish, o'z fikrlarini boshqalarga o'ztkaza olish, ta'sir eta olish usullariga hamda bahslashish madaniyatiga o'rganadilar.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi: mashg'ulot belgilangan vaqtda talabalarning xonaga (mashg'ulot o'tkaziladigan joyga) kirib kelishidan boshlanadi. Talabalar xonaga kirib kelishar ekan, mashg'ulotdan oldin o'qituvchi tomonidan eshikning yonidagi stol ustiga tayyorlab qo'yilgan, ingliz tilida yozilgan xarflardan (S,C,O,R,E) bittasini olib, stol atrofiga joylashadilar (stollarga ham shu harflar qo'yilgan, har bir stol atrofida talabalar soni bir xil bo'lishi hisobga olinadi). Talabalar joylashib olishgach, o'qituvchi mashg'ulotni boshlaydi.

O'qituvchi mashg'ulotni o'tkazish tartibi bilan talabalarni tanishtirishdan boshlaydi. O'qituvchi shu kunning dolzarb muammolaridan kelib chiqqan holda,

mashg'ulotga talabalar bilan birgalikda mavzu yoki muammo tanlaydi va guruhlardan ularning har biri tanlangan mavzu yoki muammoni bir tomonini o'rganishlarini (stollarga shu guruh tomonidan umumiy muammoning qaysi jihatlari haqida so'z yuritishlari kerakligini ko'rsatuvchi belgi yoki yozuvli material qo'yiladi), so'ngra, munozara yuritib, o'zlarining fikrlarini yozma (og'zaki) bayon qilishlari kerakligini tushuntiradi. Vazifa uchun vaqt belgilaydi. Guruhlarining ishlari tayyor bo'lgach, ular birin-ketin o'rtaga chiqib, ishlarini taqdimot qiladilar. Taqdimot avval muammoning –bedgisi (S), keyin uning –sababi (S), so'ngra –natijasi (O), manbai (R) va samarasi (Ye) tartibda olib boriladi. Boshqa guruh a'zolari taqdimot materiallari umumlashtirilib, xulosa qilinadi. O'qituvchi talabalar bilan birgalikda guruhlar faoliyatiga baho beradi, mashg'ulotga yakun yasaydi, talabalarining mashg'ulot haqidagi fikrlarini anilaydi.

“FIKRIY HUJUM” METODI

Ta'limning “Fikriy hujum” metodi o'quvchilarning dars jarayonida faolliklarini ta'minlash ularni bir xil standart tarzida fikrlashdan ozod qilish, erkin fikrlashga rag'batlantirish, muayyan mavzu yuzasidan turli- tuman g'oyalarni to'plash, ijodiy yondoshishga o'rnatish uchun xizmat qiladi.

“Fikriy hujum” metodining asosiy tamoili va sharti har bir o'quvchi tomonidan o'rtaga tashlanadigan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo taqiqlash, har qanday luqma va hazil mutoibalarni rag'bantlantirishlan iborat. Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning dars jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir.

Ta'lim jarayonida ushbu metoddan samarali va muvaffaqiyatli foydalanish o'qituvchilarning pedagogik mahorati taffakur ko'lamining kengligiga bog'liq bo'ladi.

“Fikriy hujum” metodidan foydalanish chog'ida o'quvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Bu metoddan fizikaning ma'lum bobini takrorlash darslarida, laboratoriya ishi yakunida, ekskursiya darslarida samarali foydalanish mumkin.

“6 X 6” METODI

“6 x 6” metodi yordamida bir vaqtning oʻzida 26 nafar oʻquvchining muayyan faoliyatga jalb etish orqali maʼlum topshiriq yoki malakani xal etish, shuningdek, guruxlarning har bir aʼzosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Bu metod asosida tashkil etilayotgan darsda har birida 6 nafardan ishtirokchi boʻlgan 6 ta guruh oʻqituvchi tomonidan oʻrtaga tashlangan muammoni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, oʻqituvchi 6 ta guruhni qaytadan tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil boʻladi. Yangi shakllangan guruh aʼzolari oʻz jamoadoshlariga avvalgi guruh tomonidan muammo yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

“6 x 6” metodining afzallik jihatlari quyidagilardan iborat:

- guruhlarning har bir aʼzosini faol boʻlishga undaydi;
- ular tomonidan shaxsiy qarashlarning ifoda etilishini taʼminlaydi;
- guruhning boshqa aʼzolarining fikrlarini tinglay olish koʻnikmalarini hosil qilish;
- ilgari surilayotgan bir necha fikrni umumlashtira olish, shuningdek, oʻz fikrini himoya qilishga oʻrgatadi.

Eng muhimi, har bir oʻquvchi qisqa vaqt (15 – 20 minut) davomida ham munozara qatnashchisi, ham maʼruzachi sifatida faoliyat koʻrsatadi.


Ushbu metodni 4,5,7, 8 nafar oʻquvchidan iborat boʻlgan bir necha guruhlarda ham qoʻllash mumkin.

“XULOSALAR QABUL QILISH TEXNOLOGIYASI” METODI

Ushbu metod birmuncha murakkab mavzularni oʻzlashtirish, maʼlum muammolarni har tomonlama, puxta tahlil qilish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul hamda toʻgʻrisini topishga yoʻnaltirilgan texnik yonashuvdir.

“Xulosalar qabul qilish texnologiyasi” metodi, shuningdek, avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan xulosalar mohiyatini yana bir bor tahlil qilish va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi. Guruh talabalari ishtirokida qoʻllaniladigan

bu metod bir necha o`n nafar talabalarning bilimlari darajasini aniqlash, ularning fikrlarini jamlash va baholash imkonini beradi. Ta`lim jarayonida mazkur metodning qo`llanilishi muayyan muammo yuzasidan oqilona xulosaga kelishda talabalar tomonidan bildirilayotgan har bir variant, ularning maqbul hamda nomaqbul jihatlarini mufassal tahlil etish imkoniyatini yaratadi. Mashg`ulot jarayonida talabalar quyidagi chizma asosida tuzilgan jadvalni to`ldiradilar.



“Xulosalar qabul qilish texnologiyasi” metodi quyidagi shartlar asosida qo`llaniladi.

1.O`qituvchi mashg`ulot boshlanishidan oldin munozara, tahlil uchun mavzuga oid biror muammoni belgilaydi. Guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosalarni yozish uchun plakatlarni tayyorlaydi.

2.O`qituvchi talabalarni 4 yoki 6 nafar talabalardan iborat guruhlariga ajratadi. Muammoning hal etilishi, bu borada eng maqbul xulosaningqabul qilishi uchun muayyan vaqt belgilanadi.

3.Xulosani qabul qilish jarayonida guruhlarining har bir a`zosi tomonidan bildirilayotgan variantlarningmaqbullik hamda nomaqbullik darajalari batafsil muhokama qilinadi.

4.Munozara uchun ajratigan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruh a`zolari o`z guruhining xulosasi borasida axborot beradilar.Agarda barcha guruhlar tomonidan muammo yuzasidan bir xil xulosaga kelingan bo`lsa,o`qituvchi buning sababini izohlaydi.

“KLAster” METODI

Ushbu metod talabalarga ixtiyoriy muammolar xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol

“YALPI FIKRIY HUJUM” METODI

Bu metodni 30 - 40 nafar talabalardan iborat guruhlarda qo'llash. Metod o'quvchilar tomonidan yangi g'oyalarning o'rta tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har biri 5 yoki 6 nafar talabalarni o'z ichiga olgan guruhlar 15 minut ichida ijobiy hal etilishi lozim bo'lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy ishlar beriladi. Topshiriq yoki ijodiy ishlar belgilangan vaqt ichida ijobiy hal etilgach, bu haqida guruh a'zolaridan biri axborot beradi.

Guruh tomonidan berilgan axborot o'qituvchi va boshqa guruhlar a'zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Dars yakunida o'qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasidan eng yaxshi va o'ziga xos deb topilgan javoblarni e'lon qiladi. Dars jarayonida guruh a'zolarining faoliyatlari ularning ishtiroklari darajasiga ko'ra baholab boriladi.

III. PRACTICAL CLASSES

LESSON 1. Participating in model lessons as a language learner, analyzing lessons as a teacher and completing portfolio tasks

Introduction

Professional development is a lifelong process that enables teachers to improve their knowledge, skills, and teaching practices. One of the most effective ways of enhancing professional competence is through participation in model lessons, lesson observation, lesson analysis, and reflective portfolio development. In contemporary language teacher education, teachers are encouraged not only to teach but also to become reflective practitioners who continuously evaluate their own instructional decisions and learn from the experiences of others. Participation in model lessons allows teachers to experience learning from the perspective of students, while lesson analysis helps them critically evaluate teaching practices and identify effective instructional strategies.

This topic focuses on three interconnected components of teacher professional development:

